

Bobonazarova Sevinch Abdusalom qizi

O'zMU Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global iqtisodiy inqirozlarning sabablari, oqibatlari va ularning iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Tarixda sodir bo'lgan katta iqtisodiy inqirozlar – 1929 yil Buyuk Depressiya, 2008 yil global moliyaviy inqirozi va 2020 yil COVID-19 pandemiyasi natijasida paydo bo'lgan inqiroz misolida iqtisodiy beqarorlik omillari o'rganiladi. Maqolada inqirozlardan olinadigan asosiy saboqlar, jumladan, moliyaviy regulyatsiyaning muhimligi, iqtisodiy diversifikatsiya va xalqaro hamkorlikning zaruriyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va kelajakdagi inqirozlarning oldini olish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy inqiroz, moliyaviy beqarorlik, Buyuk Depressiya, global moliyaviy inqiroz, pandemiya, iqtisodiy siyosat, xalqaro hamkorlik.*

Аннотация: *В статье анализируются причины, последствия и влияние мировых экономических кризисов на экономику. Факторы экономической нестабильности изучаются на примерах крупнейших экономических кризисов в истории — Великой депрессии 1929 года, мирового финансового кризиса 2008 года и кризиса, вызванного пандемией COVID-19 2020 года. В статье рассматриваются основные уроки, извлеченные из кризисов, в том числе важность финансового регулирования, диверсификации экономики и необходимость международного сотрудничества. Результаты исследования включают рекомендации по обеспечению экономической стабильности и предотвращению будущих кризисов.*

Ключевые слова: *экономический кризис, финансовая нестабильность, Великая депрессия, мировой финансовый кризис, пандемия, экономическая политика, международное сотрудничество.*

Annotatsiya: *This article analyzes the causes, consequences, and economic impacts of global economic crises. The factors of economic instability are examined using the examples of major economic crises in history—the Great Depression of 1929, the global financial crisis of 2008, and the crisis resulting from the COVID-19 pandemic of 2020. The article discusses key lessons learned from the crises, including the importance of financial regulation, economic diversification, and international cooperation. The research findings include recommendations for ensuring economic stability and preventing future crises.*

Keywords: *economic crisis, financial instability, Great Depression, global financial crisis, pandemic, economic policy, international cooperation.*

KIRISH

Har bir iqtisodiy tizim, qanchalik rivojlangan bo'lmasin, vaqti-vaqti bilan inqirozlarga duch keladi. Bu holat – iqtisodiyotdagi tabiiy jarayonlardan biri bo'lib, u turli omillar ta'sirida yuzaga keladi: haddan tashqari ishlab chiqarish, talab va taklif o'rtasidagi

nomutanosiblik, moliyaviy bozorlarning beqarorligi yoki davlat siyosatidagi muvofiqsizliklar. Tarix shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy inqirozlar faqatgina raqamlar yoki grafiklar emas — ular orqasida millionlab odamlarning hayoti, ishsizlik, inflyatsiya, daromadlarning kamayishi kabi muammolar turadi.

Ushbu maqola iqtisodiy inqirozlarning nazariy asoslarini, tarixiy saboqlarni, zamonaviy oqibatlarni va ularni boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan strategiyalarni tahlil qiladi. Maqsad — bu murakkab iqtisodiy hodisani oddiy tilda tushuntirish, o‘quvchiga uning asl mohiyatini anglashda ko‘maklashish va shu orqali nafaqat mavjud muammolarni, balki ularning oldini olish yo‘llarini ham ko‘rsatishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Iqtisodiy inqirozlarning nazariy asoslari

Iqtisodiy inqirozlar nazariyasiga oid ilk yondashuvlar Karl Marks va Jon Meynard Keynes kabi mashhur olimlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Karl Marks o‘zining 1867-yilda yozilgan “Kapital” asarida iqtisodiy inqirozlarni kapitalistik tizimning ichki qarama-qarshiliklari natijasi sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, inqirozlar ishlab chiqarishning haddan tashqari ortib ketishi va talabning yetarli bo‘lmashligi oqibatida yuzaga keladi. Jon Meynard Keynes esa 1936-yilda chop etilgan “Umumiy bandlik, foiz va pul nazariyasi” asarida iqtisodiy inqirozlarning oldini olish uchun davlat iqtisodiyotga faol aralashishi lozimligini ta’kidlaydi. Keynesning bu yondashuvi ayniqsa, 1929-yilgi Buyuk Depressiya hamda 2008-yildagi global moliyaviy inqirozdan chiqishda muhim rol o‘ynagan va eng samarali choralar qatoriga kirgan. Zamonaviy iqtisodiy maktablar, xususan neoklassik va monetarist yondashuvlar ham bu borada muhim nazariy asoslar yaratgan. Milton Fridman boshchiligidagi monetaristlar inflatsiya va pul massasining noto‘g‘ri boshqarilishini iqtisodiy beqarorlikning asosiy sababi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, markaziy banklarning faoliyati va monetar siyosatdagi xatolar inqirozlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, Hayek va Mizes kabi Avstriya maktabi vakillari inqirozlarning ildizini sun‘iy ravishda arzonlashtirilgan kreditlar va noto‘g‘ri investitsion signallarga bog‘laydi. Zamonaviy nuqtai nazardan esa “Behavioral Economics” (xulq-atvor iqtisodiyoti) maktabi iqtisodiy qarorlarning psixologik asoslarini o‘rganadi. Robert Shiller inqirozlar sabablari orasida investorlarning haddan tashqari ishonchi va moliyaviy bozorlarning spekulativ xatti-harakatlarini tilga oladi. Bu yondashuvlar iqtisodiy inqirozlarni murakkab ijtimoiy-psixologik jarayonlarning mahsuli sifatida ko‘rishga undaydi. Shu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, har bir iqtisodiy nazariya inqirozlarni o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. Marksizm inqirozlarni kapitalizmning ichki muammosi — ishlab chiqarish haddan tashqari ko‘payib, uni sotib oladiganlar esa yetarli bo‘lmay qolishi bilan izohlaydi. Keynes esa bunga boshqacha qaraydi — u davlat iqtisodiy jarayonlarga faol aralashsa, inqirozning oldini olish yoki uni yengillashtirish mumkin deb hisoblaydi.

Ammo bu yondashuvni monetaristlar tanqid qiladi. Ularning fikricha, muammo davlatning aralashmasligida emas, balki pul-kredit siyosatining noto‘g‘ri yuritilishidadir. Ayniqsa, inflyatsiya va foiz stavkalari noto‘g‘ri boshqarilsa, iqtisodiy beqarorlik kuchayadi. Avstriya maktabi esa bularning barini ortiqcha aralashuvning natijasi deb biladi ya’ni, arzon kreditlar va noto‘g‘ri investitsiya signalari bozordagi muvozanatni buzadi.

Real biznes sikllari nazariyasiga ko‘ra esa inqirozlar — bu iqtisodiy hayotning tabiiy qismi. Tashqi shoklar yoki texnologik o‘zgarishlar natijasida bozor o‘zi muvozanatga keladi. Xulq-atvor iqtisodiyoti esa bularning ustiga yana bir muhim jihatni qo‘shadi: odamlar har doim ham mantiq bilan ish tutmaydi. Investorlar haddan ziyod ishonchga yoki vahimaga berilsa, inqiroz ham shunchalik keskin bo‘ladi.

Qisqasi, bu nazariyalar bir-birini rad etmaydi, balki turli burchakdan qaraydi. Shuning uchun iqtisodiy inqirozlarni chuqur tushunish uchun ushbu yondashuvlarning har birini tahlil qilish — go‘yoki bir muammoni turli rakursda yoritgandek bo‘ladi. Davlat siyosati uchun esa aynan shu yondashuvlar o‘rtasidagi farqlarni bilish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Tarixiy inqirozlar va ularning sabablari

Tarixiy inqirozlar orasida 1929-yilgi Buyuk Depressiya eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Bu inqirozning sabablari orasida fond bozorining haddan tashqari shishirilishi, bank tizimining zaifligi va iste‘molchilar ishonchining keskin pasayishi ko‘rsatiladi. Oqibatda AQShda ishsizlik darajasi 25% ga yetgan, yalpi ichki mahsulot esa 30% dan ko‘proq qisqargan. Bu inqirozning oqibatlari Yevropa, Lotin Amerikasi va boshqa ko‘plab hududlarda ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqargan.

1970-yillardagi “stagflyatsiya” davri esa o‘ziga xos tarzda inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishning pasayishini bir vaqtda boshdan kechirgan. Neft narxlarining keskin oshishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ko‘payishi va global ta‘minotdagi uzilishlar bu inqirozga olib kelgan asosiy omillar bo‘lgan.

1990-yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozi esa kapital oqimlarining keskin chiqib ketishi, valyutalarning qadrsizlanishi va bank sektorining barbod bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Tailand, Indoneziya, Janubiy Koreya yalpi ichki mahsulotining 10–15% ga kamayishi kuzatildi. Jahon banki hisob-kitobiga ko‘ra, mintaqada 20 milliondan ortiq odam kambag‘allik chegarasiga tushib ketgan.

Reinhart va Rogoff “This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly” nomli kitoblarida so‘nggi 800 yil davomida sodir bo‘lgan moliyaviy inqirozlarni o‘rganib chiqishgan. Ular ushbu davr mobaynida doimiy takrorlanib kelgan sabablarga va xatolarga e‘tibor qaratishgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, davlat qarzining haddan tashqari ko‘payishi, bank tizimidagi beqarorlik va aktivlar narxining sun‘iy ravishda shishirilishi inqirozlarning asosiy sabablaridan hisoblanadi.

3. Zamonaviy iqtisodiy inqirozlar va ularning oqibatlari

Nobel mukofoti sovrindori Jozef Stiglitz esa “Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy” kitobida 2008-yilgi global moliyaviy inqirozga alohida to‘xtaladi. Uning fikricha, moliyaviy sektorning yetarlicha tartibga solinmagani hamda banklarning haddan ortiq tavakkalga asoslangan siyosati bu inqirozni yanada chuqurlashtirgan.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va Jahon banki olib borgan tadqiqotlar global iqtisodiy inqirozlarning mintaqaviy va makroiqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qiladi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan inqiroz haqida Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining 2021-yilgi hisobotida global yalpi ichki mahsulotning kamayishi va

bandlik darajasining keskin tushib ketishi iqtisodiy beqarorlikning asosiy belgilaridan biri sifatida ta’kidlangan.

Bundan tashqari, pandemiya xalqaro ta’minot zanjirlarini izdan chiqardi va ko‘plab iqtisodiy tarmoqlarning qayta tashkil etilishiga olib keldi. Bu inqiroz boshqa iqtisodiy inqirozlarga nisbatan o‘ziga xos bo‘lib, ayniqsa real sektorning chuqur tanazzulga yuz tutishi va davlatlar tomonidan katta miqyosda fiskal rag‘batlantirish dasturlarining joriy etilishi bilan ajralib turdi.

4. Inqirozlarning oldini olish va ularni boshqarish strategiyalari

Iqtisodiy inqirozlarning oldini olish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali makroiqtisodiy boshqaruv va ishonchli tartibga soluvchi institutlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Mishkin o‘zining “The Economics of Money, Banking, and Financial Markets” kitobida bank sektorining barqarorligi va moliyaviy bozorlar ustidan nazoratni kuchaytirish inqirozlarning oldini olishda hal qiluvchi omil ekanligini ta’kidlaydi.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va Jahon banki hisobotlarida esa global moliyaviy tashkilotlarning roli alohida qayd etilib, inqirozlarni samarali boshqarish uchun davlatlar o‘rtasida yaxshi muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so‘ng G20 davlatlari tomonidan amalga oshirilgan tartibga solish choralari va markaziy banklarning pul-kredit siyosati inqiroz oqibatlarini yumshatishda sezilarli foyda bergan.

Tahlil qilingan manbalar shuni anglatadiki, iqtisodiy inqirozlar ko‘pincha takroriy sabablarga ega bo‘ladi. Jumladan, noto‘g‘ri olib borilgan makroiqtisodiy siyosat, moliyaviy beqarorlik va zaif tartibga solish tizimi inqirozlarning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Tarixiy tajribalar esa har bir inqirozdan muayyan saboqlar olinayotganini ko‘rsatsa-da, iqtisodiy tizimlar murakkabligi sabab ayrim xatolar va muammolar vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi.

Mavjud tadqiqotlarga tayanib, iqtisodiy inqirozlarning oldini olish uchun quyidagi asosiy chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Moliyaviy tartibga solishni kuchaytirish – bank sektoridagi beqarorlikning oldini olish uchun.
2. Fiskal siyosatni samarali yuritish – davlat qarzlari va byudjet tanqisligini nazorat qilish orqali.
3. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – global inqirozlar paytida moliyaviy institutlar bilan yaqin aloqada bo‘lish.
4. Iqtisodiy diversifikatsiya – iqtisodiy faoliyatni birgina sohaga qaram qilib qo‘ymaslik, shu orqali tizimli xatarlardan qochish.

Ushbu xulosalar nafaqat mavjud muammolarning oldini olish, balki kelgusidagi tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy inqirozlarning sabablari, oqibatlari va ularni oldini olish bo‘yicha strategiyalar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va statistik modellashtirish asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida nazariy yondashuv bilan birga empirik tahlil usullaridan ham foydalanildi.



1. Tadqiqot yondashuvi

Tadqiqot ikki asosiy yo‘nalishda olib borildi:

Nazariy tahlil – iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini chuqurroq tushunish maqsadida klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, jumladan, Keynsha yondashuv, monetarizm va real biznes sikllari nazariyalari ko‘rib chiqildi.

Empirik tahlil – real ma‘lumotlar asosida iqtisodiy inqirozlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga qanday ta‘sir qilgani statistik usullar orqali tahlil qilindi.

2. Ma‘lumot manbalari

Tadqiqotda quyidagi ishonchli manbalardan foydalanildi:

Xalqaro tashkilotlar hisobotlari – Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlari.

Rasmiy statistik ma‘lumotlar – Jahon banki va milliy statistika idoralari tomonidan taqdim etilgan YaIM, inflyatsiya, ishsizlik darajasi kabi ko‘rsatkichlar.

Ilmiy adabiyotlar – oldingi tadqiqotlar va iqtisodiy modellar asosida yozilgan maqolalar.

3. Tadqiqot metodlari

3.1 Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili

Iqtisodiy inqirozlarning iqtisodiyotga ta‘sirini baholash uchun quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

YaIM (yalpi ichki mahsulot) o‘zgarishlari

Ishsizlik darajasi

3.2 Taqqoslash metodi

Turli davlatlarning inqirozga qarshi kurash tajribalari solishtirildi. Masalan, 2008-yilgi global inqiroz davrida AQShning kvantitativ yengillik (QE) siyosati va Yevropa Ittifoqining fiskal rag‘batlantirish choralari o‘zaro taqqoslanib, ularning samaradorligi tahlil qilindi.

4. Tadqiqotning cheklovlari

Tadqiqot natijalari quyidagi cheklovlar bilan bog‘liq:

Ma‘lumotlarning yetishmasligi – ba‘zi tarixiy inqirozlar bo‘yicha to‘liq statistik axborot mavjud emas.

Model chegaralari – qo‘llanilgan iqtisodiy modellar faqat asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslangan, psixologik va siyosiy omillar inobatga olinmagan.

Mintaqaviy farqlar – inqirozlarning har bir davlatdagi ta‘siri bir xil bo‘lmasligi mumkin.

5. Metodologiyaning ilmiy ahamiyati

Tadqiqot natijalari bir nechta yo‘nalishda amaliy ahamiyatga ega:

Iqtisodiy siyosat ishlab chiquvchilar uchun – inqirozga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishda.

Tadqiqotchilar uchun – iqtisodiy inqirozlarni chuqurroq tahlil qilishda yangi empirik dalillar sifatida.

Xalqaro moliyaviy institutlar uchun – barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi strategiyalarni shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy inqirozlarning sabablari, ularning oqibatlari va ayniqsa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ko‘rsatgan ta‘siri batafsil tahlil qilindi. O‘rganilgan natijalar iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, ishsizlik darajasi va inflyatsiya kabi muhim indikatorlarning inqiroz davrlarida qanday o‘zgarishini aniq namoyon etdi.

1. Iqtisodiy inqirozlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘siri

Tahlil davomida tarixdagi eng yirik iqtisodiy inqirozlar – 1929-yilgi Buyuk Depressiya, 2008-yilgi Global Moliyaviy Inqiroz hamda 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sabab yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul ko‘rib chiqildi. Diqqat markazida quyidagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘ldi:

YaIM o‘shish sur‘atining pasayishi

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari barcha inqiroz davrlarida keskin pasaygani kuzatildi. Bu holat iqtisodiy faollikning susayishi, investitsiyalarning qisqarishi va iste‘mol darajasining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lib, inqiroz davrlarida iqtisodiy barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘dirgani qayd etildi.

Yil	Inqiroz turi	YaIM o'zgarishi (%)	Ishsizlik darajasi	Inflyatsiya(%)	Deflyatsiya(%)
1929	Buyuk Depressiya	-8.5	24.9	-	25
2008	Global Moliyaviy Inqiroz	-2.6	9.6	5.6	-
2020	COVID-19	-3.4 ¹	8.1	5.4	-

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, inqirozlar davomida ishlab chiqarish hajmi keskin qisqarib, iqtisodiy o‘shish salbiy darajaga tushib ketadi.

Ishsizlik darajasining oshishi

Inqirozlar natijasida ishsizlik darajasi oshadi, chunki korxonalar ishlab chiqarish hajmini qisqartiradi va ishchilarni qisqartirishga majbur bo‘ladi.

Inflyatsiya va deflyatsiya

Iqtisodiy inqirozlar davomida inflyatsiya darajasi inqirozning turiga va sabablariga qarab farqlanadi:

Buyuk Depressiya (1929–1933) davrida talabning keskin pasayishi deflyatsiyaga olib keldi. Narxlar taxminan 25% ga tushib ketdi, bu esa iqtisodiy faollikning yanada pasayishiga sabab bo‘ldi.

2008-yilgi moliyaviy inqirozda bank tizimidagi muammolar inflyatsiya bosimining pasayishiga olib keldi. Iqtisodiy faollik zaiflashgani sababli narxlar barqarorlashdi yoki juda sekin o‘sd.

COVID-19 pandemiyasi (2020) esa butunlay boshqa holatni keltirib chiqardi. Ta‘minot zanjirlarining uzilishi va keng ko‘lamli pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya keskin oshdi.

¹ Muallif tomonidan tuzildi

2. Inqirozga qarshi davlat siyosatlari: taqqosiy tahlil

Turli davlatlar inqirozga qarshi turli yondashuvlarni qo'lladi:

AQSh (2008) – Federal Rezerv tizimi tomonidan joriy etilgan kvantitativ yengillik siyosati bank tizimini qo'llab-quvvatlab, iqtisodiy barqarorlikni tiklashga xizmat qildi. Bank tizimi barqarorlashdi, iqtisodiyoti asta-sekin tiklandi. Ammo bu holatda katta korporatsiyalar ko'proq foyda ko'rdi oddiy fuqarolarga esa foyda olish biroz cheklanib qoldi.

Yevropa Ittifoqi (2020) – davlat xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiy tiklanishga erishishga harakat qildi. Bu bilan ish o'rinlari saqlanib qoldi, istemol talabi esa qisman tiklandi. Lekin bu siyosat tufayli davlat qarzlari oshdi, ba'zi mamlakatlarda esa moliyaviy bosim kuchaydi.

Xitoy -Infratuzilmaga va yangi texnologiyalarga katta investitsiyalar kiritdila eksportni rag'batlantirdi. Bu iqtisodiy o'sishni barqaror salab turdi va ish bilan taminlash yuqori darajada qoldi. Ammo davlat nazorati kuchaygani sababli xususiy korxonalar cheklovlarga duch keldi.

Yaponiya (1990-yillar) – Deflyatsiyaga qarshi kurashda "nol foizli stavka" siyosatini joriy qildi, bu esa likvidlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, uzoq muddatli iqtisodiy stagnatsiyaga olib keldi.

Germaniya (2008-2009) – Ishchi kuchini saqlab qolish dasturlari orqali ishsizlikning keskin oshishining oldini oldi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishga yordam berdi.

Bu holatlar shuni ko'rsatadiki, davlatning faol ishtiroki va tezkor choralari inqiroz oqibatlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

1. Makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy inqirozlarning oldini olishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

2. Ishsizlik darajasi – bu ko'rsatkich o'sishi iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yangi ish o'rinlari yaratish har qanday inqirozdan chiqish strategiyasining asosi bo'lishi kerak.

3. Inflyatsiya va deflyatsiya – inqiroz davrida ularning boshqaruvi markaziy banklarning pul-kredit siyosatiga bog'liq. Siyosat muvozanatli bo'lishi kerak.

4. Xalqaro tajriba – turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tizimni mustahkamlash va aholiga to'g'ridan-to'g'ri yordam ko'rsatish inqirozga qarshi samarali strategiyalardan hisoblanadi.

5. Moliyaviy tartibga solishning kuchli bo'lishi 2008-yil inqirozidan keyin isbotlangan.

6. Fiskal rag'batlantirish paketlari (COVID-19 holatida) qisqa muddatda real sektorga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

7. Monetar siyosat (foiz stavkalarining pasaytirilishi) kreditlar orqali iqtisodni rag'batlantirishda foydali bo'lgan.

8. Xalqaro koordinatsiya (G20, IMF) inqirozga qarshi choralarni global miqyosda tezroq harakatlantirgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mishkin, F. (2016). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson.
2. Reinhart, C., & Rogoff, K. (2009). This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly. Princeton University Press.
3. Stiglitz, J. (2010). Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy. Norton & Company.
4. International Monetary Fund (IMF) hisobotlari. Rasmiy veb-sayt: www.imf.org (<https://www.imf.org/>)
5. World Bank hisobotlari. Rasmiy veb-sayt: www.worldbank.org (<https://www.worldbank.org/>)
6. Reinhart, C., & Rogoff, K. (2009). This Time Is Different: Eight Centuries of Financial Folly. Princeton University Press.
7. Krugman, P. (2012). End This Depression Now! W. W. Norton & Company.
8. Bank for International Settlements (BIS). (2021). Annual Economic Report 2021. Bank for International Settlements. Retrieved from www.bis.org (<https://www.bis.org/>)
9. Bernanke, B. S. (2000). Essays on the Great Depression. Princeton University Press.
10. European Central Bank (ECB). (2021). ECB Annual Report 2021. European Central Bank. Retrieved from www.ecb.europa.eu (<https://www.ecb.europa.eu/>)
11. International Monetary Fund (IMF). (2022). World Economic Outlook 2022: War Sets Back the Global Recovery. International Monetary Fund. Retrieved from www.imf.org (<https://www.imf.org/>)
12. Blanchard, O. (2018). On the Future of Macroeconomic Models. Oxford Review of Economic Policy, 34(1-2), 43-54.
13. Krugman, P. (2009). Depressiya iqtisodiyotining qaytishi va 2008-yil inqirozi. W.W. Norton & Co.
14. G20 (2009). Global tiklanish va islohotlar rejasi. London sammiti bayonoti.
15. Roubini, N. & Mihm, S. (2010). Inqiroz iqtisodiyoti: Kelajakdagi moliya tizimi haqida tezkor kurs. Penguin Press.
16. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) (2021). Iqtisodiy sharh.